

Elbekning Asarlaridan Foydalanib Bolalar Adabiyotini O'qitish Metodikasini Takomillashtirish

*Saparova Shahlo Ramazonovna*¹

Annotatsiya: Maqolada Fitrat hamda Cho'lponlarning zamondoshi, yaqin do'sti va shogirdi XX asrning serqirra ijodkorlaridan biri, iste'dodli shoir va yozuvchi Elbek (Mashriq Yunusov) va uning ijodi haqida keltirib o'tilgan. U bolalar adabiyotini yoniq she'rlari, tarbiyaviy masallari, hikoyalari va bir necha dostonlari bilan boyitdi. Shuningdek, u til va adabiyot o'qituvchisi, islohotchi pedagog sifatida ham alohida e'tirofqa sazovor. Uning bu asarlaridan bugungi kunda ham maktab va maktabgacha ta'limda, professional ta'lim hamda oliy ta'limning til va adabiyotni o'qitish metodikasi va shu kabi mutaxassislik fanlarida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: xumsonlik professor, akademik Ortiqboy Abdullayevning Elbek haqida so'zlari, "Armug'on yolqinlar" to'plami, "Olaqarg'a bilan qurbaqa" masali, "Odamlarning kuchi nimada?" hikoyasi.

Elbek, Mashriq Yunusov 1898-yili Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanining go'zal Xumson qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida dunyoga kelgan. Biz ilmiy ekspeditsiya safarida Elbek ijodini o'rgangan xumsonlik professor, akademik Ortiqboy Abdullayev, tovoqsoylik shoir Hamidulla Murodovlar bilan uchrashib Elbek haqida yana qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ortiqboy Abdullayevning quyidagi so'zlari qimmatlidir:

"Elbek qatag'on qurbonlarining katta vakillaridan biri, begunoh, hech qanday aybsiz qurbon qilinib, Kalima tomonlarida hayoti fojiali tarzda tamom bo'lgan shoir, folklorchi, pedagog olim va tilshunos sifatida o'zbek adabiyotida juda katta hissalar qo'shgan. U Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriylarning qadrdo'ni do'sti, maslakdoshi sifatida hammalari bir vaqtda qamoqqa olinib, bir vaqtda tergov qiynoqlarini boshidan kechirgan. Bu jarayonda Abdulla Qodiriy otib tashlangan, Fitrat bilan Usmon Nosir 12 yilga surgunga hukm qilinib, surgunda juda qiyinchiliklar bilan vafot etishgan. Lekin o'zbek adabiyotining rivojlanishida Elbekning munosib hissasi bor. Masalan Turkiyada Elbekni O'zbekistonning ikkinchi Cho'lponi sifatida ulug'lashadi. Katta shoir, mana shu Xumson qishlog'ida tug'ilib o'sgan, shu yerda ilgari ibtidoiy maktabda o'qigan va nima bo'lganda ham ta'lim olgan. Undan keyin qiyinchilik, muhtojliklar tufayli Toshkentga ketib, juda qiyinchiliklar bilan odamlar eshigida xizmatlar qilgan. Non topish og'ir bo'lgan zamonda Elbeklar Xumsondagi eng qashshoq odamlardan bo'lgan, yeri ham bo'lmagan, bog'i ham. Shu va boshqa qiyinchiliklar bilan amallab jadidlar maktabiga kirib ta'lim olgan, bular haqida Naim Karimovning maqolasida batafsil yozilgan.

Keyinchalik, 1921-yillardan boshlab Elbek pedagogika bilim yurtlarida rahbar lavozimlardan biri sifatida ishlab O'zbekistonda maktab maoriflarining rivojlanishi uchun katta hissa qo'shgan. Uning "Sovg'a" degan bolalar uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tuzgan darsligi o'n yillab, o'n martalab qayta-qayta nashr qilingan. Mashhur yozuvchimiz Pirmqul Qodirov "Men maktabga borganimda birinchi o'qigan kitobim Elbekning "Sovg'a" kitobi, u odam g'oyaviy ustozlarimdan biri", - deb menga bir necha marta aytib, juda xursand bo'lib yurardi.

Maktabni ko'p harakatlar bilan Elbekning nomiga qo'ydim men, Elbek ko'chasini ham, Toshkentda ham Elbek ko'chasi bor, shu kabi ishlarni qilgan edik. Ana shularni qayta tiklash shu bugungi kunda

¹ Buxoro Davlat universiteti Sport faoliyati va Pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lim kafedrasida tayanch doktoranti



hammamizni katta burchimiz, ayniqsa sizlarga o‘xshagan yosh ilmiy xodimlar, yosh ijodkorlar bu ishga tashabbuskor bo‘lishi kerak, bizni yonimizda turib yordamchi bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston qahramoni Ozod Sharafiddinov kasalxonada yotib “Elbek bog‘i” degan maqola yozdi, maqola “Qishloq hayoti” nomli gazetasining 3 ta sonida bosilib chiqdi. Xumson qishlog‘ining go‘zal joylaridan birida Elbekning nomi bilan bog‘ qilib qo‘yish hammamizni burchimiz bo‘ladi, Kasaba uyushmasining ham, qishloq aholisining ham burchi. Men ishonamanki, kelajakda Yozuvchilar uyushmasi, davlatimiz bu masalaga e‘tibor qaratadi, Elbekning ham xotirasini keng nishonlash ustida hukumatimizning farmonlari bo‘ladi. Shaxsan men o‘zim Elbek she‘rlarini tayyorlayapman, lekin pedagogik ishlarni pedagoglar qilgani yaxshi deb bilaman. Elbekning “Shakldosh so‘zlar lug‘ati” juda go‘zal kitobi bor, juda ko‘p maqollar, xalq qo‘shiqclarini butun O‘zbekistonning ko‘p joylariga ilmiy komandirovkalarga borib to‘plagan. Hozirgi akademiyamizda Elbek fondi bor, Elbek to‘plagan materiallar saqlanadi, davlat arxivida juda ko‘p materiallar bor.

Buxorolik Abul Bozorov degan kishi, biz o‘zlarini ko‘rmaganmiz, matbuot orqali bilamiz, Elbek bilan qamoqda birga o‘tirgan ekan, shu xotiralarini yozib, turmush taqozosi bilan Yangiyo‘lga kelib qolgan, shundan men xabardor bo‘lib, o‘sha odamni qarindoshlari bilan topganman, “Sharq yulduzi”da Naim Karimovning maqolasida snoska(iqtibos) bilan, meni tashabbusim bilan Abul Bozorovning xotiralarini berdik...”

Ortiqboy Abdullayev, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi”, Filologiya fanlari nomzodi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, Elbekning nomidagi maktab va bog‘ uchun chin yurakdan kurashgan insondir.

Elbekning (Mashriq Yunusov, ba‘zi manbalarda Yusupov deb berilgan) ijodi Haydarali Uzoqov (tarixshunos olim), Nurmuhammad Qobulov, Salohiddin Mamajonov, Sherali Turdiyev, Rahmatilla Inog‘omov, Tohir Qahhor², Salimxon Tillaxonov, Siddiq Asqarov, Abul Bozorov, Ahmad Aliyev, G‘afurjon Mahmudov, Jo‘ra Xudoyberdiyev, Hilola Zoirova, Gulchehra Aliyeva, Ibrohim Rahim, Ashurali Zohiriy, Abdulaziz Ahmedov, Ulug‘bek Dolimov (pedagogika fanlari doktori), Ulug‘murod Amonov (PhD, Buxoro davlat Pedagogika Instituti dotsenti) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ayniqsa Ulug‘bek Dolimovning “Elbek-ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasining asoschisi” maqolasida Elbekning bolalar adabiyotini o‘qitish metodikasiga qay darajada hissa qo‘shgani haqida ma‘lumot berilgan. “Olimning “Imlo masalasi”, “Boshlang‘ich maktabda ona tili”, “Yozuv yo‘llari” kabi asarlarisiz ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasi fani taraqqiyoti tarixini to‘la tasavvur qilish qiyin. Elbek-bolalar adabiyotining yaratuvchilaridan biri. U qisqa umri davomida o‘nlab badiiy, ilmiy-pedagogik, filologik asarlar qoldirdi.”³

Tarixshunos Haydarali Uzoqov Elbekning «Momaguldurak» to‘plamini 1993-yilda, «Tanlangan asarlar»ni 1999-yilda chop ettirdi. Folklorshunos Ulug‘murod Amonov ham «Armug‘on yolqinlar» to‘plamini 2017-yilda, «O‘zbek folklorshunosligi xrestomatiyasi» to‘plamini 2018-yilda nashr ettirdilar.

“Armug‘on yolqinlar” to‘plamida Elbekning 2 ta to‘plami 1921-yildagi “Armug‘on” va 1925-yilda nashr qilingan “Yolqinlar” to‘plami arab yozuvidan amaldagi yozuvga tabdil qilinib tahlil qilingan. Elbekning dastlabki to‘plami «Armug‘on»dagi masallar bolalar uchun yaratilgani, bolalarni yaxshilik bilan yomonlikni ilg‘ab olishga, axloq-odob va ziyraklikni tarbiyalashga qaratilgani bilan diqqatga sazovordir. To‘plamga 17 ta she‘r kiritilib, ular o‘z ruhiga ko‘ra masallar sanalib, quyidagicha nomlanadi:

“Bir-ikki so‘z”, “Qaysi biri bo‘ri”, “Kuchsizlar dunyosi”, “Sichqonlar kengashi”, “Quyruqsiz maymun”, “Maymunning qoziligi”, “Jinning olov yoqishi”, “Chol bilan kampir”, “Kim aldamchi”, “Kampirning

² Mamajonov S. Yorqin izlar. “Sovet O‘zbekistoni”, 1989-yil, 2-iyul. Turdiyev Sh. Yulduzga tosh otmaydilar. “Saodat”, 1991-yil, 10-11-sonlar, 2-bet. Inog‘omov R. Madaniyatimizning ulkan namoyondasi. “Xalq so‘zi”, 1999-yil, 12-iyun.

Qahhor T. Elbek ijodining chet ellarda o‘rganilishi. “Sharq yulduzi”, 2002-yil, 1-son, 140-145-b.

³Dolimov U. Elbek-ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasining asoschisi. “Ma‘naviy qadriyatlarimiz” jurnali. 2009 yil. 7-son. 57-65-betlar.



tovuqlari”, “Ikki tulki”, “Itlarning o’rtoqligi”, “Olaqarg’a bilan qurbaqa”, “Qo’ychi bilan bo’ri”, “Kemachi bilan hakim”, “Ongli eshak”, “Sichqonning qiz uzatishi”.

Shulardan “Armug’on” to’plamidagi “Kuchsizlar dunyosi”, “Sichqonlar kengashi”, “Maymunning qoziligi”, “Jinning olov yoqishi”, “Chol bilan kampir”, “Qo’ychi bilan bo’ri” masallari Haydarali Uzoqov tomonidan to’planib nashr etilgan “Momaguldurak” hamda “Elbek. Tanlangan asarlar” kitoblarida uchramaydi. Bu masallar ilk bor ustozimiz Ulug’murod Sultonovich Amonov tomonidan arab yozuvidan amaldagi Lotin alifbosiga asoslangan yozuvimizga tabdil qilinib, “Elbek. Armug’on yolqinlar” nomi ostida 2017-yil nashr qilindi.

Elbekning «Armug’on» (1921) masallar, «Ko’zgu» (1925), «Yolqinlar» (1927), «Sezgilar» (1927), «Bahor» (1929), «Mehnat kuylari» (1930), «She’rlar» (1934), «Chirchiq bo’ylarida» (1935), «G’unchalar» (1935) she’rlar to’plamlari, «Qo’shchi Turg’un» (1925), «Dadamat» (1936) hikoyalar majmualari, «Tozagul» (1934), «Bog’bon», «Etik», «Mergan» (1935) poemalar alohida kitoblar tarzida arab va lotin alifbolarida bosilib chiqdi. Uning she’rlari «Chig’atoy gurungi» uyushmasi chop etgan “O’zbek yosh ijodkorlari” (1922) to’plamidan joy oldi.

Elbek xalq ertaklarini to’plar va o’rganar ekan, ularga o’zi o’zbekchaga o’giran Aleksandr Sergeyevich Pushkinning «Baliqchi va baliq haqidagi ertak», «Oltin xo’roz», «Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak» tajribasi asosida yondashib, ertak syujetini nazmda bayon etish an’anasini o’zbek bolalar dostonchiligini yuzaga keltirishga tatbiq etdi. Bu jihatdan uning 1935-yilda nashrdan chiqqan «Ertaklar» to’plamini tashkil etgan «Kambag’al yigit va par dasturxon», «Erksiz folchi», «Omonat» she’riy ertaklari alohida ahamiyatga molik.

Tarixshunos olim Haydarali Uzoqov adib ijodining qirralari xususida gapirar ekan, uning birinchi o’zbek masalnavisi ekanligini o’sha davrning yetuk adabiyotshunosi A.Sa’diy mulohazalari bilan tasdiqlaydi: “Masalchilikni Elbek boshlab berdi. Tarjima yo’li bilan emas, balki masalchilikni tug’dirish yo’lini tutdi. Hali bu yo’lda undan boshqa kishi ko’rinmagan” Haqiqatan, o’tgan asrning 20-yillarida Elbek “Ot ila odam”, “Qaysi biri bo’ri”, “Sichqonxonning qiz uzatishi”, “Olaqarg’a bilan qurbaqa”, “Quyvan bilan toshbaqa”, “Itlarning o’rtoqligi” singari masal janrining o’ziga xos namunalarini yaratdi.

Elbekning “Olaqarg’a bilan qurbaqa” masali e’tiborli. Asar nomidan ko’rinib turibdiki, uning qahramonlari olaqarg’a bilan qurbaqa.

Olaqarg’a bir kun ko’ldan qurbaqani

Tutub ketdi, yemak istab suyunub uni...

Tumshug’indan suvi sachrab, ichi yonib,

Suyunubgina yemak bo’ldi juda qonib...

Masal sujetidan ko’rinib turibdiki, olaqarg’a ko’ldan qurbaqani tutib oladi hamda uni yemoqchi bo’ladi. Qurbaqa “o’lishlig’ini sezib qolg’ach”, qarg’ani maqtashga tushadi:

Dedi: - Ey, barcha qushning sen go’zali!

Dunyoda ko’rmasdim men senday qushni.

Barcha qushdan go’zaldirsan, go’zallikda

Senga tengi yo’q, yerda emas, ko’k ustida

Shunday deya qurbaqa uning sayrab berishini so’raydi. Maqtovlardan kerilib ketgan qarg’a sayray boshlashi bilan og’zi ochiladi va qurbaqa yerga tushib qochadi. Bunda adib qurbaqa timsolida tadbirkorlikni ulug’laydi.

Elbek bolalar adabiyotiga ana shunday saviya nazariy tayyorgarlik va amaliy tajriba bilan kirib keldi. Uning boshlang’ich maktab bolalari uchun darslik va o’quv qo’llanmalari tuzish tajribasi bolalar yoshi xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda badiiy asarlar yozish iqtidorini, demakki, bolalar shoiri va bolalar yozuvchisi sifatidagi iste’dodini shakllantirishda muhim omil bo’ldi. Bu jihatdan



“Bilim” darsligining ikkinchi kitobida keltirilgan “Odamlarning kuchi nimada?” hikoyasi e’tiborga loyiq:

“O’rmonda yirtqich odamga aytadi: – Saqlan, qulimga tushma, seni chaynab tashlayman, qush aytadi: – Men ko’kka uchib ketaman, odam meni tutolmaydi. Baliq o’ylaydi: “Men suv tubiga suzib ketaman, odam meni tutolmaydi.” Qurt aytadi: – Men yerga kirib berkinaman, kishi meni topolmas. Men kishiga kerak ham emasman.

Odam miltiq, tuzoq, qarmoq, ketmon yasadi. Yirtqich hayvonlarni topib otdi. Tuzoq quyib, qushlarni ilintirdi. Qarmog’iga tiqish uchun ketmon bilan yer kovlab, qurti topdi va baliqni suvdan ilintirib oldi: odamning kuchi yasagan qurollarida.”

Adibning mahorati shundaki, hayotiy saboq bolalarga xos mushohadakorlik zaminida ifodalangan. Yoki 1922-1925-1927-yillarda 25 ming nusxada bosilgan “O’zbekcha o’qish kitobi”ning birinchisiga kirgan “Yo’ldoshning tegirmoni”, “Totli sho’rva” va “Jo’jalar” hikoyalari ham shu xildagi fazilatlariga ega. Chunki “Yo’ldoshning tegirmoni”da bolalar ijodkorligi o’yin jarayonida ochib beriladi: “Yoz boshida kunlar isib, suvlar ko’payib oqa boshlaganida bolalar turli o’yinlar bilan mashg’ul bo’ladilar. Ba’zilari kurak bilan to’plagan suvlarini oqizadilar, ba’zilari suv damlaydilar. Bu o’yinda har kim bilganini qilaturg’on bo’ladi. Yo’ldosh tegirmon qilmoqqa undadi. Bitta i olib, taxtadan qanotlar qo’ydi. So’ng sharsharakka qo’ydi. Sharsharakning suvi tabanliqg’a oqqanida qanotg’a tegib, ularni aylantirmoqg’a boshladi.” Adib voqea bayoni bilan cheklanmadi, Yo’ldosh xatti-harakatini tengqurlari nuqtai nazaridan belgilar ekan, buni qahramon xarakterini shakllanishidagi ta’sirini ko’rsatishga yo’naltirdi. Yo’ldoshning bu o’yini tengdoshlari havasini uyg’otganidan qahramon taltaymadi, balki “Siz shoshmangiz, katta bo’lg’onimda yaxshi chinakam tegirmon yasarmen, o’zim tegirmonchi bo’larmen”, -deya kamtarlik qiladi, bu ishidan qoniqmaganini bildirib, kelajakda yana ulkanroq orzularga qasam qilib yashayotganini izhor etadi. Muhimi ham shunda. Bolalarni orzular qanotida kelajakka tayyorlash, bunyodkorlikka chorlash.

Ijod va pedagoglik bilan bir qatorda Elbekning shaxsiy hayotida Shermuhamedovlarning (Mirmulla, Mirmuhsin, Mirmuslim va Muborak) o’rni katta. Ularning Maxsido’zlik mahallasidagi shinam hovlisi Abdulla Qodiriy, Cho’lpon, Mannon Uyg’ur, Sobirjon va Shokirjon Raximiy, Elbeklar ishtirokida o’tadigan gurunglar bilan gavjum bo’lar edi. 1921-yilda Elbek Muborak Shermuhamedovaga uylandi. 1922-yilda bir o’g’il farzand ko’rishdi, unga katta umid bilan Ulug’bek deb ism qo’yishdi. Ulug’bekning avji yigitlik yillari o’tgan asrning 30–40-yillariga to’g’ri keldi: “xalq dushmani”ning farzandi sifatida Ikkinchi jahon urushi yillari Rossiyaning Ivanovo viloyatida mehnat frontida bo’ldi, ta’qib va haydovlar ostida o’qishni oxiriga yetkazdi, o’qituvchi bo’lib yetishdi. Ulug’bek Elbekov 2006-yilda 84 yoshida vafot etdi.

Elbek til va adabiyotimiz bo’shtoniga turfa gullar ekib o’z hissasini qo’shgan. Ayniqsa bolalar uchun, hamda boshlang’ich maktab ona tili va adabiyot o’qitish metodikasi fani taraqqiyotiga “Armug’on”(1921), “Yolqinlar”(1925), “Yozuv yo’llari”(1-bo’lak, 1921), “Boshlang’ich maktabda ona tili”(1923), “Go’zal yozg’ichlar”(1925), “Imlo masalasi”(1920), “O’zbekcha o’qish kitobi”(F.Sayfiy, G’arifxonov bilan hamkorlikda), “Bilim” o’qish kitobi(bu ham hamkorlikda), “O’rnak”(boshlang’ich maktablarning 1,2,3-yili uchun) kabi asarlari bilan o’chmas iz qoldirdi. Bu kabi qo’llanma va darsliklarning paydo bo’lishida ustoz Abdurauf Fitratning 1918-yil dekabrda tuzgan “Chig’atoy gurungi” nomli ilmiy-ma’rifiy tashkiloti asos bo’ldi.

Elbek bolalarni juda sevardi. Yuqorida nomi tilga olingan darsliklardagi asarlari yosh avlodni adolat, ezgu niyat uchun kurashga chaqirish bilan birga 20-30-yillarda maorif xodimlari uchun asosiy qo’llanma vazifasini o’tagan.

Atoqli pedagog, shoir, yozuvchi va folklorshunos olim Mashriq Yunusov-Elbek ijodining avj pallasiga ko’tarilayotgan bir davrda – 1937-yilning 13-avgustida dahshatli qatag’on mashinasi uni ham o’z komiga tortdi. Elbek 1942-yilda sobiq sho’ro davlatining eng chekka va eng sovuq o’lkasi – Magadanning Kolimo jazo lagerlaridan birida o’pka shamollashi kasaliga uchrab hayot bilan vidolashdi.



Istiqlol, mustaqillik uning ruhi pokini, o'lmas asarlarini ona xalqiga qaytardi, u tug'ilib o'sgan Bo'stonliq tumanining markazi G'azalkentda "Elbek bog'i" majmuasi tashkil etildi, uning muhtasham haykali qad ko'tardi. Shoirning "Armug'on" masallar to'plami e'lon qilindi, eng sara asarlarini o'z ichiga olgan "Tanlangan asarlar"i ijodkorning 100 yilligi munosabati bilan 1999-yilda nashr etildi.

Adabiyotlar:

1. Aliyev A. Elbek va davr adabiy jarayoni. "O'zbekiston Adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1989-yil, oktabr.
2. Amonov U.S. O'zbek folklorshunosligi xrestomatiyasi. Toshkent: "Paradigma", 2018-yil, 99-120-betlar.
3. Amonov U.S. Armug'on yolqinlar. Toshkent: "Turon zamin ziyo" 2017.
4. Amonov U.S. O'zbek tili. Toshkent: "Muharrir" nashriyoti. 2011.
5. Amonov U. S. Turkiston o'lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 412-414.
6. Амонов У. С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
7. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407. 8.
8. Amonov Ulug'murod Sultonovich, Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek – bolalar adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi" "Ayniy vorislari" 2023-yil.73-77-betlar. https://buxdu.uz/media/jurnallar/ayniy/ayniy_vorislari_1_2023.pdf.
9. Amonov U. S. Folklore in the works of Abdurauf Fitrat //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
https://www.researchgate.net/publication/309593503_FOLKLORE_IN_THE_WORKS_OF_ABDURAUUF_FITRAT https://www.semanticscholar.org/paper/FOLKLORE-IN-THE-WORKS-OF-ABDURAUUF-FITRAT_Amonov/dcc79abce08ba4602c2dc5b5ae3a87b345797d63
10. Amonov U. S. Abdurauf Fitrat is one of the earliest researchers of uzbek folklore. "Academicia" An International Multidisciplinary Research Journal, India. June 2020. 669-673p. DOI:10.5958/2249-7137.2020
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=10&issue=6&article=096>
11. Amonov U.S. Jadidchilik harakati va "Buxoroyi sharif" ro'znomasi. "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali №5. 2022-may. 62-68-betlar. <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1183/448>
12. Амонов У.С. Новые грани творческого наследия Элбека. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2020 yil. 4-son. 62-63-betlar.
13. Dolimov U. Elbek-ona tili va adabiyot o'qitish metodikasining asoschisi. "Ma'naviy qadriyatlarimiz" jurnali. 2009 yil. 7-son. 57-65-betlar.
14. Elbek. Tanlangan asarlar. Toshkent: "Sharq", 1999-yil.
15. Elbek.Momoguldurak. Toshkent: "Cho'lpon",1993-yil. 144-b.
16. Elbek. Go'zal yozg'uchilar. Toshkent.1925-y.114-b.
17. Hamroyev A., Safarova N., Ona tili o'qitish metodikasi 2-3-kurslar (BTU) o'quv-uslubiy majmua.
18. Jamilova B.S. O'zbek bolalar adabiyoti. –Toshkent: Noshir, 2019.
19. Mamajonov S. Yorqin izlar. "Sovet O'zbekistoni", 1989-yil, 2-iyul.
20. Qahhor T. Elbek ijodining chet ellarda o'rganilishi. "Sharq yulduzi", 2002-yil, 1-son, 140-145-b.



21. Qobulov N. Elbek. Toshkent: “Fan”, 1988.
22. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabalari uchun darslik. Toshkent: “Nosir” nashriyoti. 2009.
23. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.– 356b.
24. Saparova Sh.R. “The classification of Elbek poems in 5 directions” ped_mahorat@umail.uz 2021-yil, dekabr. 175-bet.
25. Saparova Shahlo Ramazonovna “Elbek o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasining asoschisi” Boshlang‘ich ta‘lim mazmunini takomillashtirish: o‘quv dasturi-o‘qituvchi-baholash xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro-2023. 352-355-betlar
26. Saparova Shahlo Ramazonovna “Elbek philologist, teacher, children’s poet” “Boshlang‘ich ta‘limning zamonaviy tendentsiyalari: Ta‘lim va tarbiya integratsiyasi” III Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi Jizzax shahri. 2023-yil 4-may. 75-78-betlar
27. Saparova Shahlo Ramazonovna “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari” “Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar” xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023-yil aprel. 68-77-betlar.
<https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52>
<https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52/128>
28. Saparova Sh.R. “Both creative and teacher” Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: Zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar xalqaro-ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil 15-may. 230-232-betlar.
29. Saparova Shahlo Ramazonovna “Jadidchi Elbekning bolalar adabiyotini o‘qitish metodikasini takomillashtirishdagi hissasi” Journal of universal science research. 15.12.2023. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12. 246-256-betlar.
<https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/3289>
30. Saparova Shahlo Ramazonovna. Improving the Methodology of Teaching Children’s Literature Using Elbek’s Textbook “Go‘zal yozg‘ichlar” AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 01, Issue 10, 2023ISSN (E): 2993-2769. P-564-572
View of Improving the Methodology of Teaching Children’s Literature Using Elbek’s Textbook “Go‘zal yozg‘ichlar” (grnjournal.us)
31. Tillaxonov S. Xotiralar. “Sharq yulduzi”, 2002-yil, 1-son, 147-148-b.
32. Turdiyev Sh. Yulduzga tosh otmaydilar. “Saodat”, 1991-yil 10-11-sonlar 24-bet.
33. Uzoqov H. Erk yo‘lida erksiz ketgan fidoiy. Kitobda: Elbek. Tanlangan asarlar. Toshkent: “Sharq”, 1999-yil, 2-20-betlar.
34. Uzoqov H. Istiqloq yo‘lida uzilgan navo. Kitobda: Elbek. Momaguldurak. Toshkent: “Cho‘lpon”, 1993-yil, 132-140-b.
35. Uzoqov H. O‘tkir metodist muallim edi. “Boshlang‘ich ta‘lim”, 1994-yil, 1-son, 10-13-b.
36. Uzoqov H. O‘z elining begi edi. “Qishloq hayoti” gazetasi, 1998-yil, 20-oktabr.

